<b>Texnik va/yoki texnologik talab</b>	<p>1. Tibbiy uskunalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan integratsiya qilishda qo'llaniladigan asosiy interfeyslar (USB, Ethernet, Wi-Fi, Bluetooth)</p> <p>2. Tibbiy uskunalarning raqamli platformalar (PACS, HIS, LIS);</p> <p>3. Tizimli diagnostika, test rejimi va monitoring vositalari orqali uskunalari;</p> <p>4. Texnik pasport, ekspluatatsiya bo'yicha qo'llanma, ishlab chiqaruvchi ko'rsatmalari va sertifikatlashtirish hujjatlari;</p> <p>Integratsiya jarayonida lozim bo'lgan kabel, razyom, tarmoq qurilmalari va uskuna moslamalari.</p>
--	--

Kasbning nomi:	Tibbiy uskunalarga xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik
Mashg'ulot nomining kodi:	73113
TMR bo'yicha malaka darajasi:	4
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<ul style="list-style-type: none"> <li>- 18 yoshga to'lgan bo'lishi;</li> <li>- Erkak va ayol (yuk ko'tarish va yurish talab qilinadi);</li> <li>- Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi;</li> <li>- Jismoniy jihatdan sog'lom bo'lishi kerak, yurak-qon tomir kasalliklari, orqa-miya muammolari va nafas yo'llari kasalliklari bo'lmasligi lozim</li> </ul> <p>Ishga munosabat va xulq-atvor:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish;</li> <li>- Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish;</li> <li>- O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish;</li> <li>- Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish;</li> <li>- Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish;</li> <li>- Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatani sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish;</li> <li>- Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish;</li> <li>- Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash;</li> <li>- Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash;</li> <li>- Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;</li> <li>- Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish;</li> <li>- Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.</li> </ul>
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta professional ta'lim
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta (o'rta maxsus) ta'lim yoki boshlang'ich professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:	-

Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	<b>TMR bo'yicha malaka darajasi:</b>	<b>Kasbning nomi:</b>
	6	Tibbiy texnologiyalar muhandisi
	5	Tibbiy asbob-uskunalarini ta'mirlovchi usta
	5	Axborot texnologiyalari (IT) bo'yicha texnik
<b>Mehnat funksiyalarining tasnifi</b>		
<b>Kodi va nomi</b>	<b>Mehnat vazifalari</b>	
B1.4 - Boshlang'ich texnik darajadagi Tibbiy uskunalarini boshqarish va texnik xizmat ko'rsatish	B1.01.4 - Uskunalarini ishga tayyorlash, ishlash holatini vizual tekshirish, texnik ko'rsatkichlarni qayd etish	<b>O'qitish natijalari</b>
		<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Nazoratchi mutaxassis ko'rsatmasi asosida tibbiy uskunalarini ishga tayyor holatga keltirish
		2. Tibbiy uskunalarining ishlash holatini vizual tekshirish va og'zaki axborot berish
		3. Uskunaning ish faoliyatini kuzatish va oddiy texnik ko'rsatkichlarni qayd etish
		4. Ish joyini sanitar-gigiyenik holatda ushlab turish
		5. Texnik hujjatlar, jurnal va log-fayllarda ma'lumotlarni kiritish
		6. Uskunalaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya etilishini nazorat qilishda yordamlashish
		7. Ishlab chiqaruvchi va muassasa yo'riqnomalari asosida ekspluatatsiya jarayoniga qo'llab-quvvatlash ko'rsatish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Oddiy tibbiy uskunalarini tayyor holatga keltirish va ularni ishlatish
		Qo'l vositalari bilan ishlash
		Texnik holatni baholash uchun vizual tekshiruv va oddiy diagnostik amallarni bajarish
		Axborotlarni qo'lda yoki elektron reestrlarga to'g'ri va aniq kiritish
		Texnik mutaxassis ko'rsatmasiga amal qilish, jamoa bilan hamkorlikda ishlash
		<b>Bilimlar:</b>
Oddiy tibbiy uskunalarining turlari va funksiyalari		
Asbob-uskunalarini ekspluatatsiya qilishga oid asosiy xavfsizlik talablari		
Boshqarish tizimi, to'xtatish/yo'lga qo'yish tugmalari, indikatorlar va ish rejimlari		
Ishlab chiqaruvchi ko'rsatmalarini o'qish va tushunish		

		Hujjatlashtirish va texnik ma'lumotlarni qayd etish jarayoni
	B1.02.4 – Profilaktika jadvali bo'yicha tekshirish, tozalash va sozlash ishlarini bajarish, ehtiyot qismlarni almashtirish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Tibbiy uskunalarni profilaktik tekshirish jadvaliga muvofiq nazoratchi muhandis topshirig'i asosida tayyorgarlik ko'rish
		2. Asbob-uskunalarni tozalash, mexanik va vizual holatini tekshirish
		3. Oddiy kalibrovka, sozlash va mustahkamlash
		4. Texnik hujjatlar, tekshiruv varaqalari va xizmat ko'rsatish jurnaliga mos yozuvlarni kiritish
		5. Ehtiyot qismlarni almashtirish, elementar sinov va ishga tushirish
		6. Qurilmalarning elektr xavfsizligi va ish muhitining sanitariya holatini ta'minlash
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Vizual ko'rik, oddiy sinov va muvofiqlikni baholash
		Profilaktik xizmat bo'yicha ishlab chiqaruvchi yo'riqnomalarini o'qish va tushunish
		Ko'rsatkichlarni yozib borish va texnik holatni hujjatlashtirish
		Asboblarni ishlatish
		Texnik topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajara olish
		<b>Bilimlar:</b>
		Tibbiy uskunalarning ish faoliyati, profilaktik xizmatlar vazifasi va ularning davriyligi
		Qurilmalar ishlab chiqaruvchisi belgilagan profilaktika mezonlari va texnik talablar
		Elektr xavfsizligi, texnik xavfsizlik va infeksiya nazorati qoidalari
	Oddiy sozlash, kalibrovka va o'lchash vositalari	
	Texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarini hujjatlashtirish tartibi	
	B1.03.4 – Nosozlik holatini vizual tekshirish, elektr aloqalarini tekshirish, ta'mirdan so'ng sinov o'tkazish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Nazoratchi mutaxassis topshirig'i asosida nosozlik yuz bergan tibbiy uskuna holatini vizual tekshirish
		2. Oddiy texnik vositalar yordamida uskunaning tashqi aloqalarini tekshirishda yordamlashish
		3. Asbob-uskuna korpusini ochish, qismlarni ajratish yoki almashtirish
		4. Nosozlik yoki ishlamayotgan bloklarni texnik mutaxassis ko'rsatmasi bilan ajratib olish va almashtirish
		5. Ta'mirdan so'ng funksional sinovlar va natijalarni qayd etish

		<p>6. Xizmat ko'rsatish to'g'risidagi ma'lumotlarni hujjatlashtirishda yordam ko'rsatish</p> <p><b>Ko'nikmalar:</b></p> <p>Oddiy elektr zanjirlarini tushunish va simlar, tugmalarni almashtirish</p> <p>Raqamli multimetr bilan kuchlanish, qarshilik va tok o'lchay olish</p> <p>Asbob-uskuna elementlarini vizual baholash va ehtiyot qismlarini tanish</p> <p>Asboblar bilan xavfsiz ishlash</p> <p>Nazorat ostida ishlab, topshiriqlarni aniq bajarish</p> <p><b>Bilimlar:</b></p> <p>Tibbiy uskunalarining asosiy qismlari, ishlash tamoyillari va ehtimoliy nosozlik turlari</p> <p>Tuzatuvchi xizmat ko'rsatishning maqsadi, tartibi va xavfsizlik talablari</p> <p>Elektr xavfsizligi, yerga ulash va izolyatsiya qoidalari</p> <p>Oddiy diagnostika usullari va tuzatish amaliyotlari</p> <p>Xizmat ko'rsatish jarayonida hujjatlashtirish talablari</p>
	<p><b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b></p>	<p>1. Belgilangan topshiriqlar doirasida tibbiy uskunalar bilan bog'liq ma'muriy, tashkiliy va hujjatlashtirish ishlarini nazorat ostida mustaqil bajarish uchun mas'ul</p> <p>2. Xarid, texnik xizmat va jamoa faoliyatiga oid jarayonlarda belgilangan tartib va yo'riqnomalarga rioya qilgan holda, yuzaga keladigan masalalarni mas'ul mutaxassis bilan kelishgan holda hal etish uchun javobgar</p> <p>3. O'z vakolati doirasida axborot to'plash, umumlashtirish va taqdim etish, shuningdek, aniqlangan kamchiliklar haqida o'z vaqtida xabar berish bo'yicha mustaqil harakat qiladi</p>
<p>B2.4 – Boshlang'ich texnik darajadagi Tibbiy uskunalarni o'rnatish, ishga tushirish va klinik faoliyatni texnik qo'llab- quvvatlash</p>	<p>B2.01.4 – Uskunani joyiga o'rnatish, tashqi aloqalarni ulash, funksional testlarni o'tkazish</p>	<p><b>Mehnat harakatlari:</b></p> <p>1. Nazoratchi mutaxassis ko'rsatmasi asosida tibbiy uskunalarini o'rnatish uchun zarur bo'lgan joy va sharoitlarni tayyorlash</p> <p>2. Uskunani yig'ish, uni joyiga o'rnatish</p> <p>3. Uskunaning dastlabki vizual tekshiruvi va tashqi qismlarining mustahkamligi va butligini tekshirish</p> <p>4. Nazoratchi mutaxassis bilan birgalikda uskunani ishga tushirish va asosiy funksional testlarni o'tkazish</p> <p>5. Uskuna ishlash jarayonida oddiy parametrlarni kuzatish va aniqlangan kamchiliklar haqida mas'ul shaxsga ma'lum qilish</p> <p>6. O'rnatish va ishga tushirish jarayoni bo'yicha hujjatlarni tayyorlash</p>

		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Asbob-uskunalarni o'rnatish va yig'ish uchun oddiy qo'l vositalari bilan ishlash
Uskuna ulanmalarini to'g'ri ajratish va ulash		
Oddiy sxema va texnik rasmlardan foydalanish		
Nazorat ostida texnik ko'rsatmalarga amal qilish		
Tartibli, xavfsiz va tozalik qoidalariga rioya qilish		
<b>Bilimlar:</b>		
Asosiy tibbiy uskunalar turlari va ularni o'rnatishdagi umumiy talablar		
O'rnatish uchun zarur muhandislik kommunikatsiyalari		
Elektr va texnik xavfsizlik qoidalari		
Ishga tushirishda oddiy funksional testlar va monitoring jarayoni		
Uskunalarning yo'riqnomalari va ishga tushirish protokollari		
B2.02.4 – Klinik bo'limlarda uskunalarni joylashtirish, foydalanuvchilarga ko'rsatma berish, texnik nazorat o'tkazish	<b>Mehnat harakatlari:</b>	
	1. Tibbiy uskunalarni klinik jarayonlarga tayyorlashda nazoratchi mutaxassis ko'rsatmasi asosida	
	2. Klinik muhitda tibbiy uskunalarni to'g'ri joylashtirish va foydalanish uchun dastlabki tekshiruvlarni amalga oshirish	
	3. Foydalanuvchilarga tibbiy uskunalarning oddiy ishlash holatini tushuntirishda texnik xizmat berish	
	4. Uskunadan foydalanish vaqtida oddiy texnik nazoratni ta'minlash va ehtiyoj tug'ilganda mas'ul shaxsga xabar berish	
	5. Tibbiy protseduralar paytida uskunaning uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun zarur kabellar, sensorlar va sarf materiallarni tayyorlash	
	6. Klinik faoliyat tugagandan so'ng uskunani o'chirish, tozalash va saqlash bo'yicha yo'riqnomalarga rioya qilish	
	<b>Ko'nikmalar:</b>	
	Tibbiy uskunalarni klinik muhitda xavfsiz va samarali joylashtirish	
	Uskuna bilan foydalanuvchi o'rtasidagi texnik aloqani ta'minlash	
	Operatsiya, diagnostika yoki kuzatuv jarayonida uskunaning faoliyatini nazorat qilish	
	Oson tozalash, dezinfeksiya va uskunani yig'ish/taqdim etish	
	<b>Bilimlar:</b>	
	Tibbiy uskunalar turlari va ularning vazifalari	
	Uskunalarning ishlash tartibi, sensorlar va interfeyslar	

		Gigiyena va infeksiya nazorati bo'yicha asosiy talablar
		Klinik muhitda elektr va texnik xavfsizlik qoidalari
		Foydalanuvchi bilan odobli va samarali muloqot qilishning texnik tomonlari
	B2.03.4 – Foydalanuvchilarga dastlabki ko'rsatmalarni berish, qo'llanma asosida o'quv jarayoni tashkil etish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Nazoratchi mutaxassis rahbarligida foydalanuvchilarga tibbiy uskunalardan foydalanish bo'yicha dastlabki ko'rsatmalarni taqdim etish
		2. Qo'llanma, yo'riqnoma va texnik videomateriallar asosida o'quv
		3. Uskunadan foydalanish paytida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan texnik savollarga oddiy darajada javob berish
		4. Foydalanuvchilarni uskunaning to'g'ri qo'llanishi, xavfsizlik va profilaktika choralari bo'yicha xabardor qilish
		5. Amaliy mashg'ulot paytida uskunaning to'g'ri ulanishi, sozlanishi va ishga tushirilishi bo'yicha texnik yordam ko'rsatish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Tibbiy uskunalar haqidagi ma'lumotlarni oddiy va tushunarli tarzda yetkazish
		Foydalanuvchilar bilan samarali muloqot qilish va texnik tushunchalarni soddalashtirish
		Amaliy ko'rsatmalarni namoyish qilish va tushuntirish
		Uskuna ishlash jarayonida yuzaga keladigan xatolarni tezkor aniqlash va joyida hal qilish
		<b>Bilimlar:</b>
		Qo'llanilayotgan tibbiy uskunalarining ishlash prinsiplari va texnik tavsiflari
		Foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan qo'llanma va o'quv materiallar tarkibi
		O'qitish jarayonida qo'llaniladigan pedagogik va kommunikativ asoslar
	Xavfsizlik va ekspluatatsiya talablari, o'qitishda qo'llaniladigan standartlar	
	Tibbiy uskunalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oddiy texnik muammolar va ularni hal etish usullari	
	<b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>	1. Belgilangan topshiriqlar doirasida tibbiy uskunalar bilan bog'liq ma'muriy, tashkiliy va hujjatlashtirish ishlarini nazorat ostida mustaqil bajarish uchun mas'ul
		2. Xarid, texnik xizmat va jamoa faoliyatiga oid jarayonlarda belgilangan tartib va yo'riqnomalarga rioya qilgan holda, yuzaga keladigan masalalarni

		<p>mas'ul mutaxassis bilan kelishgan holda hal etish uchun javobgar</p> <p>3. O'z vakolati doirasida axborot to'plash, umumlashtirish va taqdim etish, shuningdek, aniqlangan kamchiliklar haqida o'z vaqtida xabar berish bo'yicha mustaqil harakat qiladi</p>	
<p>B3.4 – Boshlang'ich texnik darajadagi tibbiy uskunalarning me'yoriy muvofiqligi, xavfsizligi va sifatini nazorat qilish</p>	<p>B3.01.4 – Texnik pasportlarni normativ hujjatlarga solishtirish, vizual tekshiruv o'tkazish, hisobotlarni to'ldirish</p>	<p><b>Mehnat harakatlari:</b></p> <p>1. Tibbiy uskunalarning texnik pasportlari va sertifikatlarini asosiy normativ hujjatlarga solishtirish</p> <p>2. Nazorat ro'yxatlari bo'yicha vizual va bazaviy tekshiruv ishlarida ustoz mutaxassis rahbarligida</p> <p>3. Uskunaning ishlash ko'rsatkichlari belgilangan me'yorlarga muvofiqligini aniqlashda sodda test va tekshiruv jarayonlarini amalga oshirish</p> <p>4. Ma'sul mutaxassis yoki muhandis topshirig'i asosida aniqlangan nosozliklar to'g'risida axborot to'plash va hujjatlashtirish</p> <p>5. Nazorat natijalarini hisobot shaklida to'ldirish</p>	
		<p><b>Ko'nikmalar:</b></p> <p>Me'yoriy hujjatlar va sifat standartlari</p> <p>Qo'ldagi asbob-uskunalar bilan xavfsiz ishlash</p> <p>Texnik nazorat jurnallari va hisobot shakllarini to'ldirish</p> <p>Tibbiy uskunalarning tashqi ko'rinishi, signal indikatorlari va audiovizual belgilarini baholash</p> <p>Mas'ul mutaxassislar ko'rsatmalari asosida tekshirish</p>	
		<p><b>Bilimlar:</b></p> <p>Tibbiy uskunalarning asosiy konstruktiv qismlari va ularning vazifalari</p> <p>Texnik reglamentlar, sanitariya-epidemiologik qoidalar va mehnat xavfsizligi talablari</p> <p>Uskunalar sifatini baholash uchun mo'ljallangan bazaviy normativ-huquqiy hujjatlar</p> <p>Nazorat tekshiruvlarining asosiy bosqichlari va tekshirish usullari</p> <p>Xavf tahlili va xavfsizlik talablarini asosiy tushunchalari</p>	
		<p><b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b></p>	<p>1. Belgilangan topshiriqlar doirasida tibbiy uskunalar bilan bog'liq ma'muriy, tashkiliy va hujjatlashtirish ishlarini nazorat ostida mustaqil bajarish uchun mas'ul</p> <p>2. Xarid, texnik xizmat va jamoa faoliyatiga oid jarayonlarda belgilangan tartib va yo'riqnomalarga rioya qilgan holda, yuzaga keladigan masalalarni mas'ul mutaxassis bilan kelishgan holda hal etish uchun javobgar</p> <p>3. O'z vakolati doirasida axborot to'plash, umumlashtirish va taqdim etish, shuningdek,</p>

		aniqlangan kamchiliklar haqida o'z vaqtida xabar berish bo'yicha mustaqil harakat qiladi
<p>B4.4 – Boshlang'ich texnik darajadagi tibbiy uskunalardan bog'liq ma'muriy boshqaruv, xarid va jamoani boshqarish</p>	<p>B4.01.4 – Tijorat takliflarini yig'ish, texnik talabnomalarni rasmiylashtirish, hujjatlarni yuritish</p>	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Jamoa faoliyatiga oid ish grafiklarini yuritish, yig'ilishlarda qatnashish va protokollarni rasmiylashtirish
		2. Tibbiy uskunalarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish, omborga joylashtirish bo'yicha aniqlanmalarni tuzish
		3. Hisobotlar, reestrlar va ichki hujjatlarni yuritish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Tibbiy uskunalardan xaridiga oid asosiy ma'muriy jarayonlarda yordam ko'rsata olish
		Hujjatlar bilan ishlash
		<b>Bilimlar:</b>
		Elektron axborot tizimlari
		Tibbiy uskunalarning texnik tavsiflari va ekspluatatsiya hujjatlari
	Tibbiy uskunalarga oid texnik hujjatlar turlari	
	Ommaviy aloqa va biznes yozishmalari standartlari	
	<p>B4.02.4 – Kunlik ish rejalarini kuzatish, vazifalarni taqsimlash, ma'lumotlarni yig'ish</p>	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Texnik xodimlarning kunlik ish rejalarini kelishish va ularning bajarilishini nazorat qilishga ko'maklashish
		2. Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini bajarishda jamoa a'zolari o'rtasida vazifalarni taqsimlash
		3. Texnik xodimlar faoliyati bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish va mas'ul shaxslarga taqdim etish
		4. Ish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritish
		5. Texnik jamoa faoliyati bilan bog'liq ichki hujjatlar va topshiriqlar ijrosini muvofiqlashtirishga ko'maklashish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Texnik xodimlar va jamoa bilan samarali muloqot qilish hamda ishlarni muvofiqlashtirish
Oddiy tashkiliy masalalarni hal etish va topshiriqlar ijrosini kuzatib borish		
Texnik xizmat ko'rsatish jarayonlari bo'yicha ma'lumotlarni tizimlashtirish va rasmiylashtirish		

		Rahbariyat va texnik jamoa o'rtasida axborot almashuvini ta'minlash
		<b>Bilimlar:</b>
		Tibbiy uskunalarga xizmat ko'rsatish bo'yicha tashkiliy ishlar va jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish asoslari
		Texnik xodimlar faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilishning boshlang'ich tamoyillari
		Mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va ichki me'yoriy hujjatlar talablari
		Tibbiy uskunalar bilan bog'liq ish jarayonlarida hujjat aylanishi asoslari
	B4.03.4 – Texnik hujjatlarni yig'ish va rasmiylashtirish, hisobotlar tayyorlash, arxivlash	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Tibbiy uskunalar bo'yicha ekspluatatsiya, texnik xizmat va ta'mirlash hujjatlarini yig'ish va rasmiylashtirish
		2. Texnik xizmat ko'rsatish natijalari asosida boshlang'ich darajadagi hisobotlar va jadvallarni tayyorlash
		3. Uskunalar holati, ishlash muddati va bajarilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni tizimlashtirish
		4. Hujjatlarni belgilangan tartibda saqlash, arxivlash va mas'ul shaxslarga taqdim etish
		5. Hisobotlarda aniqlangan kamchiliklar yoki nomuvofiqliklar haqida rahbariyatni xabardor qilish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Texnik hujjatlar va ma'lumotlarni aniq va tartibli rasmiylashtirish
		Hisobot shakllarini to'ldirish va ma'lumotlarni umumlashtirish
		Elektron va qog'oz hujjatlar bilan ishlash
		Mas'ul mutaxassislar bilan axborot almashish va topshiriqlarni bajarish
		<b>Bilimlar:</b>
		Tibbiy uskunalarga oid asosiy hujjatlar turlari va ularni yuritish tartibi
		Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash jarayonlari bo'yicha hisobot tuzishning boshlang'ich talablari
		Ichki me'yoriy hujjatlar, texnik reglamentlar va hujjat aylanishi qoidalari
		Axborotni qayd etish va saqlash bo'yicha asosiy ofis texnologiyalari
	<b>Mas'uliyat va mustaqillik</b>	1. Belgilangan topshiriqlar doirasida tibbiy uskunalar bilan bog'liq ma'muriy, tashkiliy va hujjatlashtirish ishlarini nazorat ostida mustaqil bajarish uchun mas'ul
		2. Xarid, texnik xizmat va jamoa faoliyatiga oid jarayonlarda belgilangan tartib va yo'riqnomalarga

		rioya qilgan holda, yuzaga keladigan masalalarni mas'ul mutaxassis bilan kelishgan holda hal etish uchun javobgar
		3. O'z vakolati doirasida axborot to'plash, umumlashtirish va taqdim etish, shuningdek, aniqlangan kamchiliklar haqida o'z vaqtida xabar berish bo'yicha mustaqil harakat qiladi
B5.4 – Boshlang'ich texnik darajadagi tibbiy texnologiyalar, innovatsiyalar va ularni tizimlarga integratsiya qilish	B5.01.4 – Log-fayllar va monitoring tizimlari orqali kuzatish, innovatsion loyihalarda tahlil qilish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Raqamli arxivlar, log-fayllar va monitoring tizimlari orqali uskuna ish faoliyatini kuzatish
		2. Innovatsion loyihalarda uskunalarni texnik jihatdan tahlil qilish va amaliy tavsiyalar tayyorlash.
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining tibbiy uskunalaridagi qo'llanilishi asoslari
		DICOM, HL7, PACS, HIS kabi tibbiy raqamli tizimlar va ularning umumiy ishlash prinsiplari
		Uskunalarni avtomatlashtirilgan nazorat tizimlariga ulashda qo'llaniladigan protokollar (MODBUS, TCP/IP)
		MS Windows, Linux, yoki tibbiyotda ishlatiladigan maxsus dasturlar bilan ishlashda dastlabki malakalar
		Sodda diagnostika vositalari yordamida uskunalarning dasturiy va apparat ta'minotini sinovdan o'tkazish
		AKT va tibbiy muhandislik guruhlarini bilan samarali muloqot qilish
	<b>Bilimlar:</b>	
	Innovatsiya jarayonlari, texniko-iqtisodiy asoslash va uskuna yangilanishi bo'yicha umumiy bilimlar	
	Uskuna modellari, ishlab chiqaruvchi texnik xulosalari va joriy etish standartlari	
	Innovatsion tibbiy texnologiyalar va raqamli xizmatlarning joriy etilish bosqichlari	
	<b>Mas'uliyat va mustaqillik</b>	1. Yuqori malakali mutaxassis rahbarligi ostida belgilangan topshiriqlar va texnik yo'riqnomalarga muvofiq ish olib boradi
		2. Oldindan belgilangan standartlar asosida faoliyat yuritishga mas'ul
3. Faoliyat doirasidagi kam rioya etiladigan qarorlar qabul qilishga mas'ul		
4. Tibbiy uskunalarni ta'mirlash, tekshirish yoki o'rnatishda guruhda ishlashga mas'ul		
5. Operatorlik va tekshiruv vazifalarini mustaqil bajarishga javobgar		
6. Hujjatlashtirish va hisobot berishda mas'ul		

<b>Texnik va/yoki texnologik talab</b>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Tibbiy uskunalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan integratsiya qilishda qo'llaniladigan asosiy interfeyslar (USB, Ethernet, Wi-Fi, Bluetooth);</li><li>2. Tibbiy uskunalarning raqamli platformalar (PACS, HIS, LIS);</li><li>3. Uskunalarni dasturiy ta'minot bilan ishlash jarayonida drayverlar va qo'llovchi dasturlar;</li><li>4. Innovatsion loyihalarda uskunalarning funksional imkoniyatlari;</li><li>5. Tizimli diagnostika, test rejimi va monitoring vositalari orqali uskunalari;</li><li>6. Texnik pasport, ekspluatatsiya bo'yicha qo'llanma, ishlab chiqaruvchi ko'rsatmalari va sertifikatlashtirish hujjatlari;</li><li>7. Integratsiya jarayonida lozim bo'lgan kabel, razyom, tarmoq qurilmalari va uskuna moslamalari.</li></ol>
--	--

Kasbning nomi:	Tibbiy texnika va texnologiyalar bo'yicha texnik
Mashg'ulot nomining kodi:	31142
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	1 yillik ish stajiga ega bo'lish
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<ul style="list-style-type: none"> <li>- 18 yoshga to'lgan bo'lishi;</li> <li>- Erkak va ayol (yuk ko'tarish va yurish talab qilinadi);</li> <li>- Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi;</li> <li>- Jismoniy jihatdan sog'lom bo'lishi kerak, yurak-qon tomir kasalliklari, orqa-miya muammolari va nafas yo'llari kasalliklari bo'lmasligi lozim</li> </ul> <p>Ishga munosabat va xulq-atvor:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish;</li> <li>- Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish;</li> <li>- O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish;</li> <li>- Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish;</li> <li>- Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish;</li> <li>- Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish;</li> <li>- Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish;</li> <li>- Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash;</li> <li>- Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash;</li> <li>- Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;</li> <li>- Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish;</li> <li>- Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.</li> </ul>
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:	-

Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	<b>TMR bo'yicha malaka darajasi:</b>	<b>Kasbning nomi:</b>
	6	Tibbiy texnologiyalar muhandisi
	5	Tibbiy asbob-uskunalarni ta'mirlovchi usta
	5	Axborot texnologiyalari (IT) bo'yicha texnik
<b>Mehnat funksiyalarining tasnifi</b>		
<b>Kodi va nomi</b>	<b>Mehnat vazifalari</b>	
D1.5 - Murakkab bo'lmagan tibbiy uskunalarni boshqarish va texnik xizmat ko'rsatish	D1.01.5 -Bazaviy konfiguratsiyadagi - tibbiy uskunalarning umumiy holatini tekshirish, elektr ta'minoti va mexanik tutashtiruvlarni kuzatish, o'lchov ko'rsatkichlarini qayd etish	<b>O'qitish natijalari</b>
		<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Klinik bo'limlarda tibbiy uskunalardan to'g'ri va samarali foydalanilishini kuzatish hamda nazorat qilish
		2. Ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish va uskunalarni yangilash bo'yicha jadvallarni yetkazib beruvchilar va texnik mutaxassislar bilan muvofiqlashtirish
		3. Yangi uskunalarni o'rnatish, ularni sinovdan o'tkazish va ishga tushirish jarayonlarida texnik kuzatuvni amalga oshirish va tegishli tartibda aktlashtirish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Tibbiy uskunalardan foydalanish holatini tahlil qilish, ularning samaradorligi va ishonchliligini baholash
		Yetkazib beruvchi tashkilotlar va texnik xizmat ko'rsatuvchi jamoalar bilan hamkorlikda ish yuritish, xizmatlar sifatini nazorat qilish va rejalashtirish
		Uskunalarni o'rnatishdan keyingi funksional sinovlar natijalarini baholash, ishga tushirish protokollariga muvofiqligini tekshirish va texnik hujjatlarni tayyorlash
		<b>Bilimlar:</b>
		Tibbiy uskunalarning hayot siklini boshqarishga oid zamonaviy tamoyillar
		Aktivlarni ro'yxatdan o'tkazish va kuzatib borishda qo'llaniladigan inventarizatsiya dasturlari va tizimlari
		Ishga tushirish jarayonlariga oid texnik protokollar, yetkazib beruvchilar tomonidan taqdim etiladigan texnik va yuridik hujjatlarni to'g'ri yuritish asoslari
	<b>Mehnat harakatlari:</b>	
	1. Profilaktik xizmat ko'rsatish (PX) jadvallarini tuzish va texnik mutaxassislar faoliyatini muvofiqlashtirish, belgilangan grafiklar asosida nazoratni ta'minlash	
	2. PX bo'yicha amal qilinadigan siyosat va tartib-qoidalarga qat'iy rioya etilishini ta'minlash	

	<p>D1.02.5 – Bazaviy konfiguratsiyadagi - profilaktik xizmat ko'rsatish faoliyatini amalga oshirishda yordam ko'rsatish</p>	<p>3. Tibbiy uskunalarga profilaktik xizmat ko'rsatish ishlarini reglament va yo'riqnomalarga muvofiq holda amalga oshirish hamda natijalarni hujjatlashtirish va tasdiqlash</p> <p><b>Ko'nikmalar:</b></p> <p>Xizmat ko'rsatish ishlarini rejalashtirish, ustuvorlikni aniqlash hamda texnik resurslar va vaqtni samarali taqsimlash</p> <p>Profilaktik xizmat vazifalarini sifatli va mukammal bajarilishini nazorat qilish va baholash</p> <p>Tibbiy uskunalarning ishlash holati va samaradorligini baholash orqali ularning ishonchliligini ta'minlash</p> <p><b>Bilimlar:</b></p> <p>Profilaktik xizmat ko'rsatish jarayonlarini tashkil etish, amalga oshirish va ularning amaldagi me'yoriy-huquqiy talablari</p> <p>Biotibbiyot uskunalarning ishlash prinsiplari, texnik parametrlari va kalibrovka qoidalari</p> <p>CMMS dasturlari orqali xizmat ko'rsatish tarixi, profilaktik ishlar va texnik holat bo'yicha tahlil olib borish usullari</p>
	<p>D1.03.5 – Bazaviy konfiguratsiyadagi - texnik sifatida avariya xizmat ko'rsatish</p>	<p><b>Mehnat harakatlari:</b></p> <p>1. Tibbiy uskunalarda yuzaga keladigan umumiy texnik nosozliklarni aniqlash, sababini tahlil qilish va ularni zudlik bilan bartaraf etish</p> <p>2. Barcha tuzatuvchi ta'mirlash ishlarini muvofiqlashtirish, zarur texnik xodimlar va resurslarni jalb etish hamda bajarilgan ishlar to'g'risida hujjatlashtirish</p> <p>3. Shoshilinch holatlarda texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarini nazorat qilish va ta'mirlash ishlari tezkorligi hamda samaradorligini ta'minlash</p> <p><b>Ko'nikmalar:</b></p> <p>Texnik nosozliklarni aniqlash, tashxislash va tahlil qilish</p> <p>Diagnostika asbob-uskunalari yordamida aniq xulosalar chiqara olish</p> <p>Ta'mirlash ishlarini rejalashtirish, nazorat qilish va texnik guruh faoliyatini muvofiqlashtirish</p> <p>Har bir bajarilgan ta'mirlash bo'yicha aniq, to'liq va tushunarli texnik hisobotlar tuzish, hujjatlarni rasmiylashtirish va tahlil qilish</p> <p><b>Bilimlar:</b></p> <p>Nosozliklarning asl sababini tahlil qilish usullari va tuzatish chora-tadbirlari</p> <p>Texnik yo'riqnomalar, ishlab chiqaruvchi qo'llanmalari va diagnostika protokollari</p> <p>Tibbiy uskunalarning ishdan chiqish ehtimolini kamaytirish va ishonchliligini oshirish strategiyalari</p>
	<p><b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b></p>	<p>1. Tibbiy uskunalarni boshqarish, sozlash va ish jarayonlarini bazaviy konfiguratsiya doirasida mustaqil kuzatadi</p>

		2. O'z malaka darajasiga mos bo'lgan tekshiruv va xizmat ko'rsatish amallarini mustaqil bajaradi
		3. Murakkab yoki xavfli nosozliklarni zudlik bilan yuqori malakali mutaxassislariga yetkazish uchun mas'ul
D2.5 – Murakkab bo'lmagan Tibbiy uskunalarni o'rnatish, ishga tushirish va klinik faoliyatni texnik qo'llab-quvvatlash	D2.01.5 – Bazaviy konfiguratsiyadagi - tibbiy uskunalarni o'rnatish va ishga tushirish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Tibbiy uskunalarni sinovdan o'tkazish va ishga tushirish jarayonlarini boshqarish
		2. Uskunalarni o'rnatishda belgilangan texnik va sanitar talablarga mosligini ta'minlash va ushbu jarayonni to'g'ri hujjatlashtirish
		3. Barcha funksional va xavfsizlik parametrlarini to'liq tekshirish va natijalarini tasdiqlash
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Tibbiy uskunalarni o'rnatish va ishga tushirish jarayonini tashkil qilish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish
		Sinov asbob-uskunalari va komissiyalash shakllaridan samarali foydalanish
		Yetkazib beruvchi tomonidan belgilangan texnik shartlar va talablarga rioya etilishini tekshirish va natijalarni rasmiylashtirish
		<b>Bilimlar:</b>
	Ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan o'rnatish tartiblari va ekspluatatsiyaga tayyorlash mezonlari	
	Milliy va muassasaviy komissiyalash protokollari, rasmiylashtirish talablari	
	O'rnatish jarayonida xavf tahlili va xatarlarni baholash usullari	
	D2.02.5 – Bazaviy konfiguratsiyadagi - klinik faoliyatni texnik qo'llab-quvvatlash	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Uskunalarning ishga tayyorligini ta'minlash maqsadida klinik xodimlar bilan doimiy hamkorlik qilish
		2. Shifokor va tibbiy xodimlarga uskunalaridan to'g'ri va samarali foydalanishda amaliy yordam ko'rsatish
		3. Qurilmalarni shifoxona ish jarayoniga samarali integratsiya qilish maqsadida foydalanuvchi fikrlarini yig'ish va tahlil qilish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Turli tibbiyot sohasi mutaxassislari bilan samarali muloqot olib borish
		Klinik faoliyatning asosiy jarayonlari va uskunalariga bo'lgan talablarni bajarish
Klinik xavflarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rish		
<b>Bilimlar:</b>		
Tibbiy uskunalarning bemorni parvarishlash jarayonidagi o'rni va foydalanish qoidalari		
Har bir bo'limga xos ish jarayonlari va uskunalariga bo'lgan ehtiyojlar		

		Uskunalardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan fikr-mulohaza tizimlari
	D2.03.5 – Foydalanuvchilarga uskuna ishlash tartibini ko'rsatish, qo'llanma asosida tushuntirish, xatolarni kuzatib borish va tuzatish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Foydalanuvchilarga uskunaning ishlash tartibini ko'rsatish
		2. Uskunadan foydalanish bo'yicha oddiy ko'rsatmalarni tushuntirish
		3. O'quv jarayonida foydalanuvchining xatolarini kuzatib borish va to'g'rilash
		4. O'quv jarayonida texnik jihatdan tugmalar, displey, kabellar bo'yicha tushuntirish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Tibbiy uskunalardan foydalanish paytida uni kuzatish va texnik nazoratni ta'minlash
		Klinik amaliyotda uskunaning to'g'ri ishlashini ta'minlash
		Mutaxassis ko'rsatmasi asosida uskuna parametrlarini tekshirish
		Signal yoki ogohlantirish holatlarini farqlash va xabar berish
		Xodimlarni texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash
		<b>Bilimlar:</b>
		Uskunalarning klinik sharoitdagi vazifalari
		Klinik jarayonda texnik xavfsizlik qoidalari
	Oddiy xatolarni ajratish va belgilash uslublari	
	Xodimlar bilan ishlashdagi kommunikatsiya madaniyati	
	<b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>	1. Bazaviy konfiguratsiyadagi tibbiy uskunalarni o'rnatish va ishga tushirish jarayonida rahbar ko'rsatmalari ostida yordam beradi
		2. Klinik faoliyatni texnik qo'llab-quvvatlashda uskunaning ishlash holatini kuzatadi, kichik nosozliklarni mustaqil bartaraf etadi
		3. Foydalanuvchilarni bazaviy darajadagi texnik qo'llanma bilan ta'minlaydi, oddiy savollarga mustaqil javob beradi
D3.5 – Murakkab bo'lmagan Tibbiy uskunalarning me'yoriy muvofiqligi, xavfsizligi va sifatini nazorat qilish	D3.01.5 – Bazaviy konfiguratsiyadagi - tibbiy uskunalarni me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiqligini va sifat talablarini nazorat qilish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Tibbiy uskunalarning texnik pasportlari va sertifikatlarini asosiy normativ hujjatlarga solishtirish
		2. Nazorat ro'yxatlari bo'yicha vizual va bazaviy tekshiruv ishlarida ustoz mutaxassis rahbarligida
		3. Uskunaning ishlash ko'rsatkichlari belgilangan me'yorlarga muvofiqligini aniqlashda sodda test va tekshiruv jarayonlarini amalga oshirish
		4. Ma'sul mutaxassis yoki muhandis topshirig'i asosida aniqlangan nosozliklar to'g'risida axborot to'plash va hujjatlashtirish
		5. Nazorat natijalarini hisobot shaklida to'ldirish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
Me'yoriy hujjatlar va sifat standartlari (GOST, ISO, O'zDst) asosida tibbiy uskunalarni tekshirish		

		Qo'ldagi asbob-uskunalar (o'lchov priborlari, testerlar) bilan xavfsiz ishlash
		Texnik nazorat jurnallari va hisobot shakllarini to'ldirish
		Tibbiy uskunalarning tashqi ko'rinishi, signal indikatorlari va audiovizual belgilarini baholash
		Ma'sul mutaxassislar ko'rsatmalari asosida tekshirish
		<b>Bilimlar:</b>
		Tibbiy uskunalarning asosiy konstruktiv qismlari va ularning vazifalari
		Texnik reglamentlar, sanitariya-epidemiologik qoidalar va mehnat xavfsizligi talablari
		Uskunalar sifatini baholash uchun mo'ljallangan bazaviy normativ-huquqiy hujjatlar
		Nazorat tekshiruvlarining asosiy bosqichlari va tekshirish usullari
		Xavf tahlili va xavfsizlik talablarini asosiy tushunchalari
<b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>		1. Tibbiy uskunalarning me'yoriy-huquqiy hujjatlar va sifat standartlariga muvofiqligini kuzatish va nazorat qilish uchun javobgar
		2. Oddiy nomuvofiqliklarni mustaqil aniqlaydi va rahbar ko'rsatmasi bilan tuzatish choralari amalga oshiradi
		3. Nazorat jarayonida kiritilgan ma'lumotlarning aniqligi, to'g'riligi va hujjatlar bilan mosligini ta'minlashga mas'ul
D4.5 –Murakkab bo'lmagan tibbiy uskunalar bilan bog'liq ma'muriy boshqaruv, xarid va jamoani boshqarish	D4.01.5 –Bazaviy konfiguratsiyadagi - tibbiy uskunalarni xarid qilish jarayonlarini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1.Xarid jarayonlariga oid tijorat takliflarini yig'ish, solishtirish va dastlabki tahlil qilish
		2.Nazoratchi mutaxassis ko'rsatmalari asosida uskunalar talabnomalari va texnik topshiriqlarini rasmiylashtirish
		3.Loyihalar, shartnomalar va amaliy xarid hujjatlarini tayyorlashda ma'muriy xizmat ko'rsatish
		4.Jamoa faoliyatiga oid ish grafiklarini yuritish, yig'ilishlarda qatnashish va protokollarni rasmiylashtirish
		5.Tibbiy uskunalarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish, omborga joylashtirish bo'yicha aniqlanmalarni tuzish
		6.Hisobotlar, reestrlar va ichki hujjatlarni yuritish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Tibbiy uskunalar xaridiga oid asosiy ma'muriy jarayonlarda yordam ko'rsata olish
		Hujjatlar bilan ishlash: tijorat takliflari, smetalar, reestrlar va hisobotlarni tuzish va tahrir qilish
		Ishchi jamoa faoliyatini tashkil etishda logistika, vaqtni boshqarish va vazifalarni taqsimlash
		Hujjat aylanishi tizimlaridan foydalanish
		Ma'lumotlar bazasini yuritish va ularni to'g'ri arxivlash
<b>Bilimlar:</b>		
Davlat xaridlari va tijorat xaridlari bo'yicha asosiy tartiblar		
Tibbiy uskunalariga oid texnik hujjatlar turlari		

		Boshqaruv va xarid jarayonlarida qo'llaniladigan asosiy qonun va me'yoriy hujjatlar
		Jamoaviy ish va boshqaruv nazariyasi asoslari
		Ommaviy aloqa va biznes yozishmalari standartlari
	D4.02.5 – Kundalik vazifalarni taqsimlash, ish muddatini kuzatish, vositalar va materiallarni tekshirish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Texnik xodimlarning kundalik vazifalarini taqsimlashda rahbar ko'rsatmalariga asosan ko'maklashish
		2. Jamoa tomonidan bajariladigan texnik xizmat ishlarining bajarilish muddatini kuzatish va ma'lumotlarni rahbarga yetkazish
		3. Texnik xizmat jarayonida zarur vositalar, asboblar va materiallarning mavjudligini tekshirish va ularni jamoaga taqdim etish
		4. Jamoa a'zolari tomonidan bajarilgan ishlar bo'yicha qisqa qaydlar, ro'yxatlar va hisoblarni yuritishda ko'maklashish
		5. Xizmat jarayonida yuzaga kelgan oddiy tashkiliy muammolarni mustaqil hal qilish va zarur hollarda rahbarni xabardor qilish
		6. Jamoa ish jarayonida mehnat muhofazasi va xavfsizlik talablari bajarilishini kuzatish va ogohlantirish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Texnik xodimlar o'rtasida vazifalarni taqsimlash va jamoa ishini muvofiqlashtirishda yordam ko'rsatish
		Oddiy tashkiliy muammolarni mustaqil hal qilish va samarali muloqot olib borish
		Texnik ma'lumotlarni to'g'ri qayd etish, ro'yxatlar va qisqa hisobotlarni rasmiylashtirish
		Xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va jamoa a'zolarini ogohlantirish
		Asbob-uskunalar, jihozlar va materiallar bilan ishlash
		<b>Bilimlar:</b>
		Tibbiy uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish jarayonining asosiy bosqichlari
		Tashkiliy muvofiqlashtirish va ish jarayonini rejalashtirishning boshlang'ich prinsiplari
		Texnik xizmat ko'rsatishda qo'llaniladigan asbob-uskunalar, materiallar va ulardan foydalanish qoidalari
		Mehnat muhofazasi, sanitariya-gigiyena va xavfsizlik talablarining asoslari
		Ichki xizmat hujjatlari, hisob-kitoblar va ro'yxatlarni yuritish talablari
		<b>Mehnat harakatlari:</b>
	2. Texnik xizmat ko'rsatish, profilaktika va ta'mirlash bo'yicha bajarilgan ishlarni maxsus jurnallarga yoki elektron tizimga kiritish	

